9.	**Tarkibida terpenoidlar bo‘lgandorivor o‘simliklar va mahsulotlar**	Tarkibida terpenoidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va ularning mahsulotlari. Terpenlar va terpenoidlar haqida tushuncha, sinflarga bo‘linishi. Tarkibida efir moyi bo‘lgan dorivor o‘simliklarni tabiatda tarqalishi, efir moylarini o‘simlikda to‘planishi va o‘simlik uchun ahamiyati.O‘simlikda efir moylarining to‘planishiga ta’sir etadigan omillar; iqlim, yorug‘lik, o‘sish joyi, yoshi. Efir moyi bo‘lgan dorivor o‘simlik mahsulotlarini o‘ziga xos yig‘ish, tayyorlash qoidalari. Efir moylarini olish usullari. Fizik - kimyoviy xossalari. Tahlil qilish usullari . Efir moylari va tarkibida efir moyi bo‘lgan mahsulotlarning tibbiyotda qo‘llanishi.Qalampir yalpiz, dorivor mavrak, evkalipt turlari, dorivor valeriana, dorivor va yashil moychechak, qopa andiz, achchiq shuvoq, igir, oddiy bo‘ymadoron, arpabodiyon, fenxel , tog‘rayxon, kashnich, qora zira, oddiy archa,qayin,oddiy va sudralib o‘suvchi tog‘jambil, kamfora olinadigan o‘simliklarni sxema bo‘yicha tavsifi. Qalampir yalpiz, dorivor mavrak, kashnich, arpabodiyon, dorixona ukropi urug‘i mahsulotlarini makroskopik va mikroskopik to‘liq tahlil qilish. Dorivor moychechak guli va evkalipt mahsulotini makroskopik tahlil qilish, gulini tuzilishini o‘rganish. Valeriana ildizi mahsulotlarini tashqi ko‘rinishi makroskopik tahlil qilish. Qopa andiz ildizi, bo‘ymadoron, qayin bargi mahsulotlarini makroskopik tahlil qilish.	**10**	**N A**	**5**
10.	**Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar**	Alkaloidlarning ta’rifi, tabiatda tarqalishi, alkaloidlarni o‘simlikda to‘planishi, sinflarga bo‘linishi, fizik-kimyoviy xossalari. Sifat reaksiyalari, miqdoriy tahlil usullari. Tarkibida alkaloid bo‘lgan o‘simlik bilan ishlaganda amal qilish zarur bo‘lgan ehtiyot choralari. Alkaloidli mahsulotlarni tibbiyotda qo‘llanishi. Qizilcha (efedra), senesio, itsigak, afsonak, achchiqmiya, mingdevona, belladonna, bangidevona turlari, qoncho‘p, qoraqobiq, oddiy zirk, rauvolfiya, choy o‘simliklarini to‘liq tavsifi, isiriq, ituzum o‘simliklarini qisqacha tasnifi. Mingdevona, bangidevona turlarini mahsulotlari, o‘simligini asosiy morfologik belgilari, mikroskopik tuzilishi. Qoncho‘p, belladonna, afsonak, zirk, isiriq,choy, kofe mahsulotlarini makroskopik tahlili, tashqi ko‘rinishini to‘liq o‘rganish.	**10**	**N A**	**4**

11.	**Tarkibida glikozidlar bo‘lgandorivor o‘simliklar va mahsulotlar.**	Tarkibida glikozidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. Glikozidlarni ta’rifi. Sinflarga bo‘linishi, fizik –kimyoviy xossalari. Tarkibida glikozidlar bo‘lgan mahsulotlarni yig‘ish, quritish, saqlash qoidalari.Sinflarga bo‘linishi, tibbiyotda qo‘llanishi	**2**	**N**	**2**
12.	**Tarkibida monoterpen glikozidi bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar**	Monoterpen glikozidlarini ta’rifi va tarkibi. Tarkibida monoterpen glikozidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. Uchbarg, qoqi o‘ti o‘simligi mahsuloti, o‘simliklarni to‘liq tavsifi, mahsulotlarini o‘simlik va oilasining nomlari, asosiy morfologi belgilari, geografik tarqalishi, mahsulotlarini tayyorlash muddati, quritish qoidasi, tashqi ko‘rinishidagi alohid abelgilari, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi, dori preparatlari. Qoqi ildizi, uchbarg o‘simliklari mahsulotini makroskopik tahlil qilish. Morfologik belgilarini o‘rganish.	**8**	**N A**	**5**
13.	**Kardiotonik ta’sirga ega bo‘lgan yurak glikozidi bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar**	Kardiotonik ta’sirga ega bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. Ta’rifi, sinflarga bo‘linishi, tabiatda tarqalishi, qandli va qandsiz qismlarini strukturali tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari. Glikozidlarni o‘simlikda to‘planishiga ta’sir etuvchi omillar, iqlim sharoitlari, yorug‘lik, tuproq, tarkibi, geografik omillar va boshqalar. Biologik standartizatsiya, kardiotonik ta’sir etuvchi glikozid bo‘lgan mahsulotlarni tayyorlash, quritish, saqlash qoidalari. Kardiotonik ta’sirga ega bo‘lgan tarkibida glikozidlari bo‘lgan o‘simliklarni o‘rganishda olimlarning mavqelari. Mahsulotlarni tibbiyotda ishlatilishi. Angishvonagul turlari: qizil va yirik gulli, kiprikli, tukli, malla turlari. Bahorgi adonis va may marvaridguli turlarini sxema bo‘yicha to‘liq tavsifi. Qizil va yirik gulli angishvonagul bargi makroskopik tahlili, marvaridgul va bahorgi adonis yer ustki qismi mahsulotlarini makroskopik va mikroskopik tahlili, tarkibida uchraydigan aralashmalardan farqi, ularni ajratish. Berilgan o‘simliklardan mikroskopik preparatlar tayyorlash, mikroskopda ko‘rish, anatomik diagnostik belgilarni ko‘rib o‘rganish. Maxsulotlarni, o‘simlik turlarini, oilasini lotincha nomlari, dori preparatlari.	**10**	**N A**	**4**

14.	**Tarkibida saponin bo‘lgan dorivor o‘simlik va mahsulotlar**	Saponinlarning ta’rifini, sinflarga bo‘linishini, tabiatda tarqalishi, olimlar tomonidan o‘rganilganligi, sifat reaksiyalarini o‘rgatish. Tibbiyotda, xalq xo‘jaligida, oziq-ovqatda qo‘llanishi va vaksinalar tayyorlashdagi ahamiyati. Qizilmiya - shirinmiya o‘simligi, turlarini lotincha nomlari. Makroskopik va mikroskopik tahlil qilish. Ildizini ko‘ndalangiga va uzunasiga kesilgandagi mikroskopik tuzilishi. Jenshen va uning o‘rinbosarlarining tahlili. Poroshogini mikroskopik tuzilishi. Tolalar, suv naylarini ko‘rinishi. Mikroskopik preparatni tayyorlash usuli qo‘llanadigan	**10**	**N A**	**5**
15.	**Tarkibida fenolglikozidlar bo‘lgan dorivor o‘simlik va maxsulotlar**	Fenolglikozidlar ta’rifi, aglikonlarini va qandli qismlarini tuzilishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Fenolglikozidlarni sifat reaksiyalari, tibbiyotda qo‘llanilishi . Toloknyanka, brusnika, erkak paporotnik, radiola o‘simliklarini sxema bo‘yicha to‘liq tavsifi. Toloknyanka, brusnika barglarini mahsulotlarini tashqi ko‘rinishi, temir kuporosi (FeSO4) kristalli bilan arbutinga reaksiya qilish. Tayyorlangan qaynatmalardan arbutin borligin aniqlash, oshlovchi moddalar borligini temir ammoniy achchiqtosh yordamida cho‘kma hosil bo‘lishini kuzatish; Mahsulotlarini maydalik darajasi, aralashmalar borligini, ombor zararkunandalari bilan zararlanganligini aniqlash.	**10**	**N A**	**4**
16.	**Kumarinlar bo‘lgan o‘simlik va mahsulotlar**	Kumarinlar ta’rifini, tuzilishi va organizmga farmakologik ta’sirini; fizik - kimyoviy xossalarini, o‘simlik tarkibida kumarin borligini aniqlaydigan sifatreaksiyalarini; kumarin saqlaydigan dorivor o‘simliklardan tayyorlangan dori preparatlarini tibbiyotda qo‘llanishini, kumarin saqlaydigan katta kella, pasternak, oqquray, o‘simliklarini sxema bo‘yicha to‘liq tasvirlashni. Maxsulotlarni chinligi, tozaligi, davlat standarti talabiga javob berishini aniqlash. Mahsulotlarini maydalik darajasi, aralashmalar borligini, ombor zararkunandalari bilan zararlanganligini aniqlash. Katta kella, pasternak, oqquray gerbariylari bo‘yicha barglarini morfologik belgilarini o‘rganib chiqib, meva shakllarini rasmini chizish,tahlilga keltirilgan o‘simlik mahsulotlarini gerbariyga taqqoslash, kumarinlarga sifat reaksiyalar o‘tkazish tahlil natijalari bo‘yicha bayonnomani to‘ldirish.	**8**	**N A**	**4**

17.	**Tarkibida antrasen xosilalari va ularning glikozidlari bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar**	Tarkibida antrasen xosilalari va ularning glikozidlari bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. O‘simlik dunyosida tarqalishi, o‘simlikda to‘planishi, ta’rifi. Fizik - kimyoviy xossalari, o‘simliklar mahsulotlarini yig‘ish, quritish, saqlash qoidalarini, sinflarga bo‘linishi, sifat reaksiyalari, tarkibida antraglikozid bo‘lgan o‘simliklarni o‘rganishda olimlarning olib borgan ishlari va ularning ahamiyati. Tibbiyotdaqo‘llanishi.	**8**	**N A**	**4**
18.	**Tarkibida flavonoidlar bo‘lgandorivor o‘simlik va mahsulotlar.**	Tarkibida flavonoidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va ularni mahsulotlari ta’rifi, sinflarga bo‘linishi, tabiatda tarqalishi, o‘simliklarda to‘planishiga sabab bo‘ladigan omillar. Fizik - kimyoviy xossalari, sifat reaksiyalari, tabiatda tarqalishi. Tarkibida flavonoidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar mahsulotini yig‘ish, quritish, saqlash. Tarkibida flavanoid bo‘lgan o‘simliklar ustida ishlagan olimlar. Flavonoid saqlaydigan mahsulotdan tayyorlangan preparatlarni tibbiyotda qo‘llanishi. Tikanli va to‘q qizil rangli do‘lana, bo‘znoch, achchiq toron, suv qalampiri, arslonquyruq, dastarbosh, dalaqirqbo‘g‘imi, yapon soforasi sxema bo‘yicha to‘liq tavsifi, qushtoron va shaftoli bargli toron o‘simliklarini qisqacha tavsifi.	**14**	**N A**	**3**
19.	**Tarkibida oshlovchi moddalar bo‘lgan dorivor o‘simlik va mahsulotlar**	Tarkibida oshlovchi moddalar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. Ta’rifi o‘simlik dunyosida tarqalishi, o‘simlikda to‘planishi. Oshlovchi birikmalarni o‘rganish, ko‘proq to‘planishiga ta’sir qiluvchi omillar. Fizik - kimyoviy xossalari. Sinflarga bo‘linishi. Oshlovchi moddalar saqlaydigan o‘simliklarni o‘rganishga hissa qo‘shgan olimlar. G‘ozpanja, eman, zangvizorba, shumurt, chernika, olxa sxema bo‘yicha to‘liq tavsifi. **E**man po‘stlog‘i tashqi ko‘rinishi, ko‘ndalang kesimi va poroshogini mikroskopik tuzilishi. Zangvizorba ilonsimon toron, g‘ozpanja, chernika o‘simliklarini tashqi ko‘rinishini o‘rganish. Mahsulotdagi aralashmalarni aniqlash.	**10**	**N A**	**3**

20.	**Tarkibi kam o‘rganilgan biologik faol modda bo‘lgan dorivor o‘simlik va mahsulotlar.**	Kam o‘rganilgan va turli guruh biologik faol moddalar bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar. Ta’rifi o‘simlik dunyosida tarqalishi, o‘simlikda to‘planishi. Kam o‘rganilgan va turli guruh biologik faol moddalar bo‘lgan dorivor o‘simliklarining to‘liqtavsifi. Tarkibi to‘liq o‘rganilmagan biologik faol modda bo‘lgan dorivor o‘simliklar maymunjon, piyoz, sarimsoq, kalanxoe, qovoq urug‘i, tukli erva, sallagul steviya, topinambur o‘simliklarini to‘liq tavsifi.	**10**	**N A**	**3**
21.	**Hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlar**	Hayvonlardan olinadigan dorivor mahsulotlar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar asarlarida hayvonlardan olinadiganmahsulotlarni tibbiyotda qo‘llanganligi, halq tabobatida turli hayvon yog‘larni qo‘llanilishi . Ilon zahari, ilon turlari, ilon zaharidan olinadigan preparatlar va ularni ishlatilishi. Asalari ishlab chiqadigan mahsulotlar – asal, asalari zahari, asalari ona suti (propolis), ularning xossalari To‘g‘ri sida to‘liq ma’lumot. Halq tabobatida ishlatiladigan bo‘rsiq, qo‘y, cho‘chka, g‘oz, ayiq, it, baliq yog‘larini, ilon, asal, asalari zahari, asalari ona suti (propolis) to‘liq tavsifi va chinligini aniqlash	**2**	**A**	**3**
22.	**Turli morfologik guruhga Kiradigan noma’lum dorivor o‘simlik mahsulotlarini aniqlash.**	Turli xil shaklda keltirilgan butun, yirik bo‘laklarga bo‘lingan, poroshoksimon, briket choy - yig‘ma holida keltirilgan dorivor o‘simlik mahsulotlarini aniqlovchi kalit yordamida chinligini aniqlash. Turli xil shaklda keltirilgan butun, yirik bo‘laklarga bo‘lingan, poroshoksimon, briket choy - yig‘ma holida keltirilgan dorivor o‘simlik mahsulotlarini aniqlovchi kalit yordamida chinligini aniqlash.	**2**	**A**	**2**
	Jami:		**144**		**72**

3.O‘quv chi larning bilib va ko‘nikma larini baholash

O‘quv dasturi asosida O‘quv chi lar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma lar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol- javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

Prezident asarlari

1. Shavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

2. Shavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

3. Shavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.

4. Shavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-201

4. Adabiyotlar:

1. M.K.Zufarova, N.A.Musaeva,D.M.Akromova «Farmakognoziya va botanika asoslari amaliyoti» tibbiyot kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent,2007

2. X.X.Xolmatov, U.A.Axmedov, N.A.Musaeva «Farmakognoziya va botanika asoslari», tibbiyot kollejlar talabalari uchun o‘quv adabiyoti. Toshkent,2007

3. D.A.Muravyova «Farmakognoziya», uchebnaya literatura dlya studentov farmasevticheskix fakultetov meditsinskix institutov.1991

4.Davlat Farmakopeyasi X va Xinashri Moskva 1989

5.A.F.Konev, L.S.Koneva «Narodnaya meditsina». Moskva,2005.

6.A.N.Yunusxo‘jaev «Farmasevtik atamalarning ruscha-o‘zbekchaizohlilug‘ati». Toshkent,2004.

7.Xolida Mirfayyoz qizi «Botanika». Farmasevtika instituti talabalari uchun o‘quv adabiyoti. Toshkent,1995.

8.A.M.Zadorojniy, A.G.Koshkin, S.Ya.Sokolov «Spravochnik po lekarstvennым rasteniyam». Moskva,1992.

9.M.A.Kuznesova, Ch.Z.Rыbochuk «Farmakognoziya». Moskva,1985.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
2. www.Google.ru
3. www.med.uz.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIMNING TAYYORLOV YO‘NALISHI

5.71.05.01 “ FARMATSIYA” mutaxassisligi uchun

Fitoterapiya
O‘quv dasturi

Kvalifikatsiyalar nomi:	Farmasevt assistenti
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**3.11**
Ajratilgan soat :	**54**

Toshkent 2021

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

2 -Respublika tibbiyot kollejining o'qituvchi lari"Farmatsiya"kafedra mudiri
S.A.Abduraxmonova
Dori turlari texnologiyasi modul o'qituvchi si
M.A.Alaviddinova

Taqrizchilar: Afshona Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari O.Q.Saidov.

1.O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Fitoterapiya**
Ajratilgan soat	**54**
Mavzular soni	10 ta
Dasturning maqsadi	O‘quv chi larga fitoterapiyaning bemorlarga davo ko‘rsatish da farmakoterapiyada tutgan o‘rni, dorivor o‘simliklarni ng ishlatilishi, fitopreparatlarni olinishi, dori shakli xaqida bilim berish va ko‘nikma larni shakllantirishga zamin yaratish.
O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari)	Hozirgi zamon modul yutuqlari asosida dorivor o‘simliklardan fitopreparatlar tayyorlash va ularni To‘g‘ri ishlatish haqida bilimga ega bo‘ladilar. Dorivor o‘simlik preparatlarini ishlatish usullarini turli omillarga bog‘liq ligi xaqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.
Bilim	Fitoterapiya moduli tibbiyot kollejlarining farmasevt assistenti mutaxassisligi bo‘yicha bilim beruvchi asosiy modullardan biridir. Fitoterapiya dorivor o‘simliklar bilan davolash, dorivor o‘simliklardan olinadigan dori preparatlari va ishlatilishi haqida bilimga ega bo‘ladilar.
Ko‘nikma	Dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibi va tuzilishini bilgan holda ulardan olinadigan dori preparatlarini ishlatish bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish.Hozirgi zamon modul yutuqlari asosida dorivor o‘simliklardan fitopreparatlar tayyorlash va ularni To‘g‘ri ishlatish haqida bilim va ko‘nikma xosil qilish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan modul nomi	Fitoterapiya moduli farmasevtik terminologiya va lotin tili ,dori turlari texnologiyasi, farmakologiya, farmakognoziya va botanika asoslari boshqa modullar bilan bog‘liq likda o‘rganiladi**.**
O‘qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ;
Dasturga ko‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruxga tayinlangan dars tili asosida (rus va o‘zbek)
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib (joriy nazorat oralik nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan**)**
O‘quv chi larning bilim va ko‘nikma larini baholash	Yozma, og‘zaki, savol- javob, munozara, test, amaliy topshiriq

O‘quv dasturi mazmuni

№	**Mavzuning nomi**	**Mavzuning qisqacha mazmuni**	**Jami**	**O‘qitish ning tashki**	**Mustaqil ta’lim**
1.	**Fitoterapiya moduli ahamiyati maqsadi va vazifalari. Dorivor o‘simliklar preparatlarini qo‘llash tamoyillari**	Fitoterapiya dorivor o‘simliklar ulardan tayyorlangan va olingan preparatlar bilan bemorlarni davolash To‘g‘ri sidagi modul. Fitoterapiya moduli farmakologiyani ajralmas kismi bo‘lgani uchun farmakologiya moduli bilan bog‘lab o‘rganiladi.	**4**	**N**	**3**

2.	**Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar. Xalq tabobatining tarixi.**	Xalq tabobatida ishlatiladigan ayrim dorivor o‘simliklar. Xalq tabobatining tarixi. Ibn Sinoning tibbiyotga bag‘ishlangan asarlari "Tib qonunlari" kitobi. Xalq tabobatining fitoterapiyada axamiyati va yangi fitopreparatlar topishda roli. Uning fitoterapiyada axamiyati va yangi fitopreparatlar topishda roli. Xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinayotgan ayrim dorivor o‘simliklar (sano, zirk, ro‘yan va b.) misolida tibbiyot amaliyotiga kiritilganligi va davo samarasi tasdiqlangani. Xushbo’y hidga ega bulgan o‘simliklar, va ulardan fitochoylar tayyorlash.	**4**	**N**	**3**
3.	**Markaziy nerv sistemasiga ta’sir etuvchi dorivor o‘simlik preparatlari. Yurak qon tomir tizimiga ta’sir etuvchi o‘simlik preparatlari**	MNSni rag‘batlantiruvchi dorivor o‘simliklar (xitoy choyi, kamfora daraxti, kuchala) va ularning fitopreparatlari. MNSni tormozlovchi dorivor o‘simliklar (valeriana, arslonquyruq, afsonak va b.) va ularning preparatlari. Yurak faoliyatining yetishmasligida ishlatilidigan yurak glikozidlari saqlovchi o‘simliklar (digitalis, stromodult, adonis, marvarid gul va b.) ni ishlatilishi.	**6**	**N A**	**3**
4	**Me’da – ichak va jigar faoliyatiga ta’sir etuvchi dorivor o‘simliklar. Peshob haydovchi dorivor o‘simliklar**	Me’da ichak va jigar kasalliklari gastrit, oshkozon ichak yarasi,enterit, kolit, gepatit To‘g‘ri sida umumiy tushuncha. Ularning fitoterapiyasida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar: aloe, bo‘ymadoron, air, kashnich, kanakunjut, sano, rovach, frangula.Ovqat hazm bo‘lishini yaxshilovchi fitopreparatlar. Buyrak kasalliklari fitoterapiyasida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar: Aloe, erva, kiyik o‘ti, sachratq, qushtoron. Xalq tabobatida buyrak va o‘t-tosh kasalligida ishlatiladigan dorivor o‘simliklardan tayerlangan damlamalar, siydik haydovchi fitopreparatlar.	**6**	**N A**	**3**
5	**Umumiy tonusni oshiruvchi dorivor o‘simliklar fitopreparatlari**.	Umumiy tonusini oshiruvchi shifobaxsh o‘simliklar. Bu guruxga kiruvchi qadimdan ishlatib kelinayotgan dorivor o‘simliklarni ng (jenshen, levziya, radiola, xitoy limonniki, exinopanaks va b.) Umumiy tonusni oshiruvchi shifobaxsh o‘simliklar dori preparatlarini ishlatilishi	**6**	**N A**	**3**
6	**Nafas a’zolariga ta’sir etuvchi dorivor o‘simliklar**	Nafas a’zolari kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar va ularning fitopreparatlari (afsonak, arpabodiyon, andiz, gulhayri, dalachoy, zubturum, maymunjon, marmarak, moychechak, qizilmiya, qizilcha va b.) va ularning fitopreparatlarining ishlatilishi.	**6**	**N A**	**3**
7	**Teri kasalliklar fitoterapiyasi**.	Teri kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o‘simliklarni ta’rifi va tasnifi.Teri	**6**	**N A**	**3**

		kasalliklarda ishlatiladigan dorivor o‘simliklar fitoterapiyasi To‘g‘ri sida umumiy tushuncha. Dorivor o‘simliklar (igir, uchrangli gunafsha, bo‘tako‘z, limono‘t, yong‘oq bargi, oqqaldirmoq va b.) xarakteristikasi.			
8	**Qon oqishini to‘xtatuvchi dorivor o‘simliklar va ularning preparatlari.**	Qon ivish jarayoniga ta’sir qiladigan dorivor o‘simliklar (achchiqtaron, lagoxilus, bo‘ymadaron, jag‘-jag‘, qirqbo‘g‘im va b.) va ularning fitopreparatlarini o‘rganish.Dorivor o‘simlik preparatlarini ishlatilishi.	**6**	**N A**	**3**
9	**Stomatologik kasalliklar fitoterapiyasi.**	Stomatologiyada ishlatiladigan fitopreparatlar. Kasalliklar (stomatit, paradantoz, karies, pulpit va b.) To‘g‘ri sida qisqa ma’lumot. Ushbu kaslliklarda ishlatiladigan dorivor o‘simliklar (marmarak, arnika, g‘ozpanja, eman, air, gazanda va b.) dorivor o‘simliklarni fitoterapiyasi.	**6**	**N A**	**3**
10	**Og‘rik qoldirish uchun ishlatiladigan dorivor o‘simliklar**	Og‘rik qoldirish uchun ishlatiladigan dorivor o‘simliklar .Bangidevona, mingdevona, belladonna, dorivor o‘simliklarini fitoterapiyasi.	**4**	**N**	**-**
			54		**27**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikma larini baholash.

O‘quv dasturi asosida O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma lar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.
Baholash usullari yozma, ogzaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv , amaliyotini o‘zlashtirish natijalariga aniqlashga imkon beradi.
Nazorat savollari va topshirpklar qo‘yilgan maksadga muvofiq bo‘lish lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro‘yxati

Prezident asarlari

1. Shavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
2. Shavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
3. Shavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
4. Shavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.

Asosiyadabiyotlar

1. M.N.Maxsumov, M.M.Malikov “Farmakologiya”. Toshkent., 2006y.
2. M.N.Maxsumov, X.X.Xolmatov “Fitoterapiya farmakologiya asoslari bilan birga”. Toshkent., 2003y.
3.B.A.Samura, L.T.Malaya “Fitoterapiya v klinike vnutrennix bolezney”. Xarkov. 2003.
4.M.D.Mashkovskiy “Lekarstvennыe sredstva” (1–2 tom). Moskva. 2004y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Spravochnik farmasevta. Moskva, “Meditsina”, 2004g
2. M.N.Nabieva, E.Djo‘raev. “Fitoterapiya v bitu”. Toshkent.
3. M.N.Maxsumov. “Ma’ruzalar matni”. 2000y., 1994.

4. X.U.Aliev, M.N.Maxsumov. “Fitoterapiya”. O‘quv – uslubiy qo‘llanma. Toshkent.. 2003y.

Internet saytlari

http://www.ziyonet.uz/http://www.lex.uz/ httpwww.gugle.com/

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIMNING
TAYYORLOV YO‘NALISHI

5.71.05.01 Farmatsiya
mutaxassisligi uchun

FARMASEVTIK TEXNOLOGIYA

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiya nomi:	**Farmasevt assistenti**
O‘quv rejadagi tartib raqami:	**3.12**
Ajratilgan soat	**270**

Toshkent 2021

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:S.A.Abduraxmonova — 2-Respublika tibbiyot kolleji "Farmatsiya"kafedrasi mudiri

M.A. Alaviddinova — 2-Respublika tibbiyot kolleji "Farmatsiya"kafedrasi Dori turlari texnologiyasi moduli o'qituvchisi

Taqrizchilar : Yo.S.Karieva — Toshkent Farmasevtika Instituti "Dori turlari texnologiyasi" kafedrasi mudiri professor

N.Sh.Radjabova — "Dori turlari texnologiyasi" kafedrasi assistenti

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Farmasevtik texnologiya**
Ajratilgan soat	**270**
Mavzular soni	19
Dasturning maqsadi	Farmasevtik texnologiya modulining nazariy asoslari va dori turlarini tayyorlash ko‘nikmalarini egallash va shakllantirish .
O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari)	Hozirgi zamon modul yutuqlari asosida dori tayyorlashni o‘rgatiladi. “Farmasevtik texnologiya” moduli o‘quvchilarga dori shakllarini tayyorlash usullarini va amaliyotga tadbiq etishni , jihozlashni, rasmiylashtirishni o‘rgatadi.”
Bilim	Farmasevtik texnolgiya moduli xaqida tushunchani,rivojlanish tarixini,maqsadi va vazifalarini; Farmasevtik texnologiyaning boshqa modullar bilan bog‘liqligini ; Qattiq ,suyuq,yumshoq va steril dori turlarini tayyorlash texnologiyasini,jixozlash ,saqlash va berishni o‘rgatadi.
Ko‘nikma	Retsept asosida kukun,yig‘ma,eritma,suspenziya,emulsiya,tomchi dorilar , damlama, qaynatma shilimshiq, surtma dori, sham dori, linimet, steril dori turlarini tayyorlashni, saqlash va berishni o‘rgatish.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan modul nomi	“Lotin tili va farmasevtik terminologiya asoslari “ “Farmakologiya” “Sanoat farmatsiyasi” “Farmakognoziya va botanika asoslari” “Xalq tabobati ”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ;
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida (o‘zbek va rus tili)
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib (joriy nazorat ,oraliq nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan)
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash	Yozma ,og‘zaki ,savol- javob, munozara ,test ,amaliy topshiriq.

2.O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1.	**“Dori turlari texnologiyasi modulining maqsadi va rivojlanish tarixi. Dorixona, uning tuzilishi va vazifalari. Doza, doza haqida tushuncha, turlari.**	Dori turlari texnologiyasi“ modulining maqsadi va rivojlanish tarixi. Modulning buyuk asoschilari: Buqrot, Jolinius, Abu Ali ibn Sino. XVIII-XIX asrlarda . Dorixona, uning tuzilishi, vazifalari, turlari.. Dori moddalarning dozalari haqida tushuncha. Dozaning turlari: bir martalik, bir sutkalik, o‘rtacha terapevtik, zaharli va o‘ldiruvchi doza haqida tushunchalar.	**14**	**N**	**2**
2.	**Retsept, uning tuzilishi. Dorixona idishlari va qadoqlovchi yordamchi vositalar. Dori turlari texnologiyasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar. Dori shakllarini tayyorlashda og‘irlik va hajm o‘lchash asboblari.**	Retseptning tuzilishi. Retseptning ahamiyati va turlari. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligining retsept to‘g‘risidagi buyrug‘i. Retsept yozish qoidasi. Dorixonada retsept qabul qilish va ularni saqlash tartibi.Shisha va chinni idishlar, shtanglaslar. Qog‘oz va uning turlari, karton. Sintetik polimer idishlar va ulardan tayyorlangan idish turlari. Yog‘och, plastmassa, po‘kak, metall, rezina tiqinlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Kapsula turlari: qog‘oz, pergament, mumlangan, parafin shimdirilgan, glyutoid, jelatina-kraxmal kapsulalar. Davlat farmakopeyasi va uning tuzilishi. Manuallar. Standart va boshqa me’yoriy xujjatlar. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligini buyruqlari, Dori turlarini tayyorlashda dozalarga bo‘lishning ahamiyati. Tarozi turlari. Tarozilarning tuzilishi va ulardan foydalanish qoidalari. Dozator qoshiqchaning tuzilishi, ishlatish maqsadi va qoidasi. Suyuqliklarni o‘lchash usullari. Hajm o‘lchash asboblari: o‘lchov kolbalari, silindrlar, menzurkalar, tomchi o‘lchagichlar, byuretkalar.	**14**	**N A**	**4**
3.	**Kukunlar**	Kukun dori shakllarining qo‘llanilishi, tarkibi va dozasiga qarab sinflarga bo‘linishi. Kukun dori shakllariga retsept yozish qoidalari va dozasini tekshirish. Dozaga bo‘lingan va bo‘linmagan, oddiy va murakkab kukunlar. Hovoncha turlari haqida umumiy ma’lumot. Kukun dori shakllarini umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Kukun dori shakllarini bo‘yovchi, uchuvchan, qiyin	**14**	**N A**	**5**

		maydalanadigan, zaharli va kuchli ta’sir etuvchi moddalar va ekstraktlar bilan tayyorlash. Trituratlar tayyorlash. Yarim tayyor mahsulotlardan, efir moyining qandli aralashmasi bilan kukunlar tayyorlash. Kukun dori shakllarini qadoqlash, joylash, jihozlash, rasmiylashtirib berish.			
4.	**Yig‘malar**	Yig‘malarta’rifi.Yig‘malarning qo‘llanilishiga ko‘ra sinflarga bo‘linishi. Dorixonada yig‘malarni tayyorlash texnologiyasi. Presslangan yig‘malar. Yig‘malarga tuz va efir moylarini qo‘shish qoidalari. Yig‘malarni joylash, saqlash va rasmiylashtirib berish.	**14**	**N A**	**4**
5.	**Eritmalar**	Suyuq dori turlarini qo‘llanilishi, dispers holatiga ko‘ra sinflarga bo‘linishi. Tozalangan suv, uning olinishi, saqlanishi. Chin eritmalar. Eritmalarga retseptlar yozish qoidalari. Eritmalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Eritmalarni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Dozasini tekshirish. Tarkibida 5% va undan ortiq quruq modda saqlagan eritmalarni tayyorlash. Hajm oshish koeffitsienti (HOK). Standart eritmalar: xlorid kislota, vodorod peroksidi, formalin, Burov suyuqligi eritmalarini tayyorlash. Xushbo‘y suvlar. Xushbo‘y suvlarni umumiy tayyorlash texnologiyasi. Suvsiz eritmalar. Suvsiz eritmalarga tavsifnoma. Glitserinli va moyli eritmalar. Spirtni suyultirish. Spirtli eritmalarni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Yuqori molekulali birikmalarning eritmalari. Pepsin, jelatina va kraxmal eritmalarini tayyorlash texnologiyasi. Kolloid eritmalar ularning xossalari, turg‘unligi. Dorixona amaliyotida kollargol, protargol, ixtiol eritmalarini tayyorlash texnologiyasi. Eritmalarni jihozlash va rasmiylashtirib berish **.**	**16**	**N A**	**8**
6.	**Suspenziyalar**	Suspenziyalarga ta’rif, suspenziyalarning hosil bo‘lish omillari. Gidrofob va gidrofil moddalardan suspenziyalar tayyorlash. Suspenziyalar turg‘unligini oshiruvchi stabilizatorlar. Suspenziyalarni dorixonalarda dispergirlash va kondensatsion usullarda tayyorlash texnologiyasi. Chayqatiladigan miksturalar. Suspenziyalarni sifatini tekshirish. Suspenziyalarni qadoqlash, jihozlash va berish.	**14**	**N A**	**4**
7.	**Emulsiyalar**	Emulsiyalar qadimgi dori turi. Emulsiyalarning turlari: suvdagi-moy (S/M,) va moydagi-suv(M/S) tipidagi emulsiyalar. Emulgatorlar va ularning xususiyatlari. Moylardan va mag‘izlardan emulsiya tayyorlash texnologiyasi. Emulsiyalar sifatini tekshirish, jihozlash va berish Shirin bodom mag‘izidan emulsiya tayyorlash. Moyli emulsiyani shaftoli, bodom yoki kanakunjut moyidan emulgatorlar yordamida tayyorlash. Tayyorlangan emulsiyaning sifatini tekshirish, qadoqlash va yorliqlash.	**14**	**N A**	**4**

8.	**Suvli ajratmalar**	Suvli ajratmalar - damlama, qaynatma va shilimshiqlar ta'rifi. Suvli ajratmalarni tayyorlashda Davlat farmakopeyasi talablari. Alkaloid, saponin saklovchi oshlovchi modda va efir moylari saqlovchi dorivor o'simliklardan damlama va qaynatmalar tayyorlash. Yurak glikozidlari bo'lgano'simliklarning ta'sir birligini standart miqdorini hisobga olib damlama va qaynatmalar tayyorlash. Ekstrakt konsentratlardan suvli ajratmalar tayyorlash texnologiyasi. Shilimshiqlarni o'ziga xos tayyorlash usullari. Suvni shimish yoki suvni o'rnini bosish koeffitsientlarini hisobga olib, suvli ajratmalar tayyorlash. Suvli ajratmalarni sifatini aniqlash, qadoqlash jiqozlash va rasmiylashtirish.	**14**	**N A**	**7**
9.	**Linimentlar**	Linimentlarga ta'rif, sinflarga bo'linishi. Linimentlarga retsept yozish. Linimentlar uchun asoslar. Gomogen va geterogen linimentlarni sovunli va moyli linimentlarni tayyorlash, sifatini tekshirish. Linimentlarni qadoqlash va yorliqlash. Saqlash qoidalari va muddatlari. Dorixona sharoitida linimentlarni umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyalari. Linimentlar tarkibiga kiradigan qattiq dori moddalar. Uchuvchan liniment, Vishnevskiy linimenti, moyli va sovunli linimentlarni tayyorlash. Linimentlarning sifatini tekshirish, qadoqlash, jihozlash va rasmiylashtirish.	**14**	**N A**	**4**
10.	**Surtma dorilar**	Surtma dori turining ta'rifi va tavsifi. Qo'llanilishiga ko'ra sinflarga bo'linishi. Asoslar va ularning sinflarga bo'linishi: liofil, gidrofil va emulsiya tipidagi asoslar. Dori moddalarni surtmalarga kiritish qoidalari. Retsept yozish usullari. Surtmalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Gomogen va geterogen surtmalar. Ularni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash Eritmali surtmalar, emulsiyali surtmalar, suspenziya tipidagi surtmalar va aralash surtmalarni tayyorlash. Surtmalar sifatini DF ko'rsatmasi bo'yicha tekshirish. Surtmalarni qadoqlash, jihozlash va rasmiylashtirish.	**14**	**N A**	**5**
11.	**Pastalar**	Pastalar ta'rifi. Sinflarga bo'linishi. Pastalarga retsept yozish qoidasi. Pastalarning tayyorlash texnologiyasi. Pastalarni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash. Pastalarning asoslari. Lassar pastasini tayyorlash. XIOT pastasi (Xarkovskiy institut oxranы truda)ni tayyorlash, ularni jihozlash, qadoklash, rasmiylashtirish, saqlash.	**14**	**N A**	**4**
12.	**Sham dorilar**	Sham dorilarning biofarmasevtik nuqtai nazardan ta'rifi. Shamcha, sharcha, tayoqchalarga retsept yozib, hisoblash. Asoslar. Asos miqdorini xisoblash. Shamcha, sharcha, tayoqchalarni turli usullar bilan tayyorlash: qo'l	**14**	**N A**	**5**

		bilan ezish, quyish usullari. Tayoqchalarga qo‘shiladigan asos miqdorini formula yordamida hisoblashni.Ularning sifatini tekshirish, qadoqlash, jihozlash va berish.			
13.	**Hab dorilar (pilyulalar)**	Pilyulyalarga retsept yozish. Pilyulalarga yordamchi moddalar qo‘shishda asosiy qoidalariga rioya kilish.Pilyulyalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Pilyula tayyorlash asbobidan to‘g‘ri foydalanish. Pilyulalarni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va berish. DF talabiga binoan pilyulalar sifatini tekshirish. Qadoqlash, jihozlash va berish.	**14**	**N A**	**4**
14.	**Steril dori shakllari . Aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllari.**	Steril sharoitida tayyorlanadigan dori shakllari: Aseptikaning mohiyati.Steril dori turlariga qo‘yilgan talablar. Steril va aseptik eritmalarni tayyorlashda ishlatiladigan dori vositalarga qo‘yilgan talablar. Aseptik sharoitda dori shakllarini tayyorlash texnologiyasi. Sterilizatsiya va sterilizatsiya turlari. Steril dori shakllarini jihozlash saqlash va berish .	**14**	**N A**	**5**
15.	**In’eksion dori turlari (fiziologik, infuzion eritmalar)**	Sterillangan va aseptik sharoitda tayyorlangan dorilar haqida tushuncha. Dorilarni in’eksiya usuli bilan organizmga kiritish yo‘llari. In’eksion eritmalarni turg‘unlashtirish uchun ishlatiladigan stabilizatorlar va ularni hisoblash.Eritmaning hajmiga qarab avtoklavda sterillash vaqti va qoidalari. Erituvchilar.In’eksion suvga qo‘yilgan talablar, suvsiz erituvchilar. In’eksion dorilarga qo‘yilgan talablar. Izotonik eritmalar to‘g‘risida tushuncha, izotonik konsentratsiyalarni Vant -Goff qonuni bo‘yicha hisoblash. Natriy xlorid ekvivalenti bo‘yicha hisoblash. Fiziologik eritmalar. Plazma o‘rnini bosuvchi eritmalar,natriy xloridning izotonik eritmasi. In’eksion eritmalarni saqlanish muddati **.** In’eksion eritmalarni turg‘unligini oshiruvchi moddalar(stabilizatorlar)dan foydalanish. In’eksion eritmalarni sterillash. In’eksion eritmalar va aseptik dorilarning sifatini tekshirish. Ularni jihozlash va rasmiylashtirish.	**14**	**N A**	**5**
16.	**Ko‘z dori shakllari**	Ko‘zga ishlatiladigan dorilar tayyorlashning o‘ziga xos usullari. Ko‘z tomchilari, ularga qo‘yilgan talablar. Natriy xlorid ekvivalenti bo‘yicha hisoblash. Ko‘z tomchilarini tayyorlash texnologiyasi. Ko‘zni yuvish uchun ishlatiladigan eritmalar. Ko‘z surtmalari. Ularga qo‘yiladigan talablar. Ko‘z surtmalari uchun ishlatiladigan asoslar. Ularni aseptik sharoitda tayyorlash. Ko‘z tomchilari va sutmalarini tayyorlash. Ko‘z dorilarining sifatini tekshirish, qadoqlash, jihozlash va berish.	**14**	**N A**	**5**
17.	**Antibiotiklar bilan tayyorlanadigan dori**	Tarkibida antibiotik saqlagan dori turlari. Aseptik sharoitda ularni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Antibiotik bilan kukunlar, eritmalar,surtmalar va tomchi dorilar	**14**	**N A**	**6**

	shakllari	tayyorlash, qadoqlash, jihozlash va berish Benzilpenitsillin natriy tuzi bilan dori turlarini tayyorlash: eritma, surtmalar, kukunlar. Streptomitsin, levomitsetin bilan dori turlarini tayyorlash. Idishlarga joylab, jihozlab berish.			
18.	**Bolalar uchun tayyorlanaligan dori shakllari**	Bolalar uchun tayyorlanadigan dori turlariga qo‘yilgan talablar. Bolalar uchun tayyorlanadigan dori turlari kukunlar, eritmalar, shamdorilar tayyorlash texnologiyasi. Bolalar uchun tayyorlanadigan dorilarga shirin ta’m va maza beruvchi qo‘shimcha moddalarni tanlash. Dori shakllarini qadoqlash, jihozlash, berish.	**14**	**NA**	**4**
19.	**Dori shakllarini tayyorlashda uchraydigan nomutanosibiklar va qiyinchilik tug‘diradigan retseptlar .**	Bir-biri bilan kelisha olmaydigan dori moddalari bo‘lgan retseptlarni muhokama qilish va ushbu retseptning tarkibidagi dori moddalarning fizik - kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilish. Qiyinchilik tug‘diradigan dori moddalari bo‘lgan retseptlardagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish.	**14**	**NA**	**5**
	Jami :		**270**	**270**	**90**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni baholash

O‘quv dasturi asosida o‘kuvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, ogzaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarni aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lish lozim.

4.Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Prezident asarlari

1. Shavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
2. Shavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
3. Shavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
4. Shavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.

Asosiy adabiyotlar

1. K.Maxmudjonova, Sh.Shodmonova, Sh.Tolipova, Sh.Yuldasheva “Dori turlari texnologiyasi” Toshkent, 2011
2. M.M. Mirolimov "Farmasevgik texnologiya asoslari" Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001-yil.
3. A.Muxamadieva “Doriturlari texnologiyasi” Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002- yil.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Spravochnik farmasevta. Moskva, “Meditsina”, 2004g
2. Spravochnik Vidalya. Moskva, “Meditsina”, 2009g

3. A.I.Mashkovskiy. “Lekarstvennыe sredstva” 1-2 tom. Moskva, “Meditsina”, 2009g
4. Davlat Farmakopeyasi X nashri 1968 yil.
5. Davlat Farmakopeyasi XI nashri 1987, 1989 yil

Internet saytlari:

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
2. www.Google.ru
3. www.med.uz.
4. www.Ziyo net.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIMNING
TAYYORLOV YO‘NALISHI

5.71.05.01 “Farmatsiya” mutaxassisligi uchun

SANOAT FARMATSIYASI

o‘quv dasturi

Kvalifikatsiya nomi :	**Farmasevt assistenti**
o‘quv rejadagi tartib raqami:	**3.13**
Ajratilgan soat:	**174**

Toshkent 2021

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



.

Tuzuvchilar:

Toshkent farmasevtika instituti "Dori vositalarining sanoat texnologiyasi" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor **V.R.Xaydarov**
Toshkent farmasevtika instituti "Dori vositalarining sanoat texnologiyasi" kafedrasi dotsenti, f.f.n. **O.R.Raximova**
2- Respublika tibbiyot kolleji Farmakologiya asoslari o'qituvchi si **Sh.Sh.Ismatova**
2- Respublika tibbiyot kolleji Dori turlar texnologiyasi o'qituvchi si M.A.Alaviddinova

Taqrizchi :

Toshkent farmasevtika instituti "Dori turlari texnologiyasi" kafedrasining dotsenti, f.f.n. **N.M.Rizaeva**
Toshkent farmasevtika instituti "Dori vositalarining sanoat texnologiyasi" kafedrasi dotsenti, f.f.n. **S.T.Sharipova**

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Sanoat farmatsiyasi**
Ajratilgan soat	174
Mavzular soni	14 ta
Dasturning maqsadi	“Sanoat farmatsiyasi” moduli O‘quv chi larga turli dori shakllarini farmasevtik ishlab chiqarish korxonalarida mexanizmlar, apparat va mashinalarda tayyorlashni, apparatlarning tuzilishi, ishlash prinsiplari bo‘yicha bilim va ko‘nikma larni shakllantirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari)	Farmasevt dorilarni tayyorlash uchun maxsus apparatlar, mashinalar, moslamalarni tuzilishini, ishlash jarayonini o‘rganadi.
Bilim	Modulning rivojlanish tarixini. Farmasevtik ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan dori shakllari va ularni tayyorlanishida ishlatiladigan mexanizmlarni, farmasevtika ishlab chiqarish korxonalaridagi asbob-uskunalarning asosiy turlari va qismlarini o‘rganadi.
Ko‘nikma	Farmasevtika ishlab chiqarish korxonalaridagi asbob-uskunalarning asosiy turlari va qismlarini, mexanizmlarda bajariladigan asosiy jarayonlarini,dori shakllarini turlarga ajratishni o‘rganadi.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan modul nomi	“ Farmasevtik texnologiya ” “Farmasevtik terminologiya va lotin tili” “Tibbiy va farmasevtik tovarshunoslik”
O‘qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ;
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida (o‘zbek va rus tili)
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib (joriy nazorat ,oralik nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan)
O‘quv chi larning bilim va ko‘nikma larini baholash	Yozma, og‘zaki, savol- javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2.O‘quv dasturi mazmuni

₽	**Mavzuning nomi**	**Mavzuning qisqacha mazmuni**	**Jami**	**O‘qitishning tashkiliy shakli**	**Mustaqil ta’lim**
	Modulining rivojlanish tarixi. Dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil qilish asoslari.	“Farmasevtika sanoati texnologiyasi” modulining, maqsadi va rivojlanish tarixi. XVIII - XIX asrlarda farmatsiyaning rivojlanishi.”Farmasevtika sanoati texnologiyasi” modulining zamonaviy holati.Farmatsiya sohasida yutuqlari, olimlar, professorlar: Z.M.Umanskiy, I.A.Muravyovalarning xizmatlari. ”Farmasevtika sanoati texnologiyasi”	**24**	**N**	**2**

		modulining rivojlanishiga hissa qo‘shgan o‘zbek olimlari: Z.N.Nazirov, Z.A.Nazarova, S.M.Mahkamov, M.Usubbaev, K.S.Maxmudjanova.			
	Farmasevtika tarmog‘ini boshqarish tizimi. Farmasevtik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish. Me’yoriy hujjatlar. Xalqaro va Davlat standartlari. Reglament, reglament turlari va bo‘limlari.	Farmasevtika tarmog‘ini boshqarish tizimi. Farmasevtik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan dorilarning zamonaviy holati, rivojlanishi, afzalliklari. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan dori turlari yagona rasmiylashtirish qoidalari. Me’yoriy hujjatlarni tuzish va rasmiylashtirish qoidalari. Xalqaro va Davlat standartlari. Reglament, reglament turlari va bo‘limlari.	**12**	**N**	**4**
	Dori vositalarini turlari va shakllari. Qattiq dori turlari. Ularni ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlash usullari va tayyorlashda ishlatiladigan mexanizmlar.	Dori vositalarining tasniflanishi. Mashina (dastgoh)lar haqida umumiy tushuncha. Dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan mashinalarning tuzilishi. Apparatlar bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etish tartiblari. Farmasevtika sanoatida ishlab chiqariladigan qattiq dori turlariga ta’rif va tavsif, ularning ishlatilishi. Kukunlar va ularga tavsifnoma. Kukunlarning qo‘llanilishi , tarkibi, dozasiga qarab sinflarga bo‘linishi. Kukunlarni tayyorlash texnologiyasi - maydalash, elash, aralashtirish, qadoqlash, jihozlash. Granulalarning ahamiyati, afzalliklari, korxonalarda tayyorlanadigan granulalar. Tabletkalar va drajelar ta’rifi, tayyorlash texnologiyasi, tabletka tayyorlashda ishlatiladigan mashinalarning tuzilishi. Qattiq dori turlarini tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalar. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan dorilarning tasnifi.	**28**	**N A**	**16**
	In’eksiya uchun ishlatiladigan dori turlari. Ularni ishlab chikarish korxonalarida tayyorlash usullari va tayyorlashda ishlatiladigan mexanizmlar	Sterillangan va aseptik dorilar xaqida tushuncha. Dorilarni in’eksiya usuli bilan organizmga kiritish yo‘llari. In’eksion eritmalarni tUrg‘u nlashtirish uchun ishlatiladigan stabilizatorlar va ularni hisoblash. Sterillash usullari. Eritmaning hajmiga qarab avtoklavda sterillash vaqti va qoidalari. Erituvchilar. In’eksion suvga qo‘yilgan talablar, suvsiz erituvchilar. In’eksion dorilarga qo‘yilgan talablar. Izotonik eritmalar To‘g‘ri sida tushuncha. Aseptik sharoitda tayyorlanadigan in’eksion dori turlari. Fiziologik eritmalar. Plazma	**16**	**N A**	**10**

		o‘rnini bosuvchi eritmalar, natriy xloridning izotonik eritmasi. In’eksion eritmalarni saqlanish muddati. O‘quv xonasida aseptik sharoitni tashkillashtirish. Izotonik eritmalarni tayyorlashda hisoblash ishlarini bajarish. In’eksion dorilarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Fiziologik, natriy xloridning izotonik eritmasini tayyorlash. In’eksion eritmalarni tUrg‘u nlantiruvchi moddalar (stabilizatorlar)dan foydalanish. In’eksion eritmalarni sterillash. In’eksion eritmalar va aseptik dorilarning sifatini tekshirish. Ularni jihozlash va markalash.			
	Fitopreparatlar. Ularni farmasevtik korxonalarda tayyorlash usullari va tayyorlashda ishlatiladigan mexanizmlar.	Fitopreparatlar haqida umumiy tushuncha. Nastoyka va ekstraktlarning olinishi va tayyorlanishi, ajratmalarni begona moddalardan tozalash usullari. Bahorgi adonis, marvaridgul o‘simliklaridan olinadigan fitopreparatlar. Yakka holda ajratib olinadigan fitopreparatlar – rutin, fitin. Korxona sharoitida galen va novogalen preparatlarining tayyorlanishi.Ajratmalarni begona moddalardan tozalash usullari – denaturatsiya, tuzlash, spirt yordamida tozalash, dializ va elektrodializ, xromatografik usul – sorbsiya (adsorbsiya, absorbsiya va xemasorbsiya) bilan tozalash. Fitopreparatlarning tibbiyotda ishlatilishi	**14**	**N A**	**8**
	Yumshoq dori vositalari. Ularni farmasevtik korxonalarda tayyorlash usullari va tayyorlashda ishlatiladigan mexanizmlar	Yumshoq dori shakllarining ta’rifi va tavsifnomasi. Qo‘llanilishi ga ko‘ra sinflarga bo‘linishi.Asoslar va ularning sinflarga bo‘linishi: liofil, gidrofil va emulsion difil tipdagi asoslar. Dori moddalarni surtmalarga kiritish qoidalari. Surtmalarni tayyorlashda mexanizatsiyali moslamalardan To‘g‘ri foydalanish. Surtmalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyalari. Gomogen va geterogen surtmalar. Ularni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash. Pastalar. Qo‘llanilishi ga ko‘ra pastalarning xillari va ta’rifi. Sinflarga bo‘linishi. Pastalarni tayyorlash texnologiyasi. Pastalarni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash. Shamdorilar, ularning ta’rifi, turlari. Shamdorilarga asos tanlash. Quyish va presslash usullari bilan shamdorilarni tayyorlash.Shamdorilarni qadoqlash, jihozlash, saqlash. Kosmetologiyada ishlatiladigan dori turlarining ta’rifi va tasnifi. Kosmetologiyada	**16**	**N A**	**10**

		ishlatiladigan dori turlarini texnologiyasidagi o‘ziga xos tomonlari. Kosmetologik kremlarni xususiy tayyorlash texnologiyasi. Kosmetologiya dori turlarining texnologiyasini biofarmasevtik omillari. Kosmetologik kremlarni qadoqlash, jihozlash, saqlash va berish. Emulsion, suspenzion tipidagi surtmalar va aralash surtmalarni tayyorlash. Surtmalar sifatini DF ko‘rsatmasi bo‘yicha tekshirish. Surtmalarni qadoqlash, jihozlash va rasmiylashtirish. Yuz terisini tozalovchi, himoyalovchi, oziqlantiruvchi kremlarni tayyorlash. Yuz terisini tozalash uchun losonlarni tayyorlash. Kosmetologik kremlarga asos tanlash. Kosmetologik kremlarni sifatini tekshirish. Ularni jihozlash, qadoqlash, saqlash va berish.			
